

2025-yil, may 11-son



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

***Yozgi ta'til – kitob mutolaasi
bilan mazmunli!***



ADABIYOT TA'LIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING O'RNI

Annotatsiya: maqolada xalqaro baholash tadqiqotlarini adabiy ta'limga tatbiq etish shartlari, xalqaro baholash tadqiqotlari topshiriqlarini tushunish va anglash masalalari haqida so'z yuritiladi. PISA, PIRLS, TIMSS va EQAR kabi xalqaro baholash dasturlari ta'lim sifatini aniqlash, davlatlar o'rtasida solishtirma tahlil qilish va ta'lim mazmunini global mezonlarga moslashtirish haqida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: xalqaro baholash tadqiqotlari, PISA, o'qish savodxonligi. PIRLS, TIMSS va EQAR, tahlil qilish. baholash, shaxsiy munosabat, ijtimoiy anglash.

Аннотация: в данной статье рассматриваются условия применения международных оценочных исследований в литературном образовании, вопросы понимания и осмысления задач международных оценочных исследований. Обсуждались международные программы оценки, такие как PISA, PIRLS, TIMSS и EQAR, для определения качества образования, сравнительного анализа между странами и адаптации содержания образования к глобальным критериям.

Ключевые слова: международные оценочные исследования, Пиза, грамотность чтения. ПИРЛС, ТИМСС и седло, анализ. оценка, личностное отношение, социальная осведомленность.

Annotation: this article examines the conditions for the application of international evaluative research in literary education, issues of understanding and comprehending the tasks of international evaluative research. International assessment programs such as PISA, PIRLS, TIMSS, and EQAR were discussed to determine the quality of education, compare countries, and adapt educational content to global criteria.

Key words: international assessment studies, Pisa, reading literacy. PEARLS, TIMSS and Sedlo, analysis assessment, personal attitude, social awareness

So'nggi o'n yilliklarda ta'lim sifatini baholashda xalqaro baholash dasturlari global mezon sifatida keng ahamiyat kasb etmoqda. PISA (Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va EQAR (European Quality Assurance Register) kabi dasturlar turli davlatlardagi o'quvchilarning funksional savodxonlik, o'qish, tahlil qilish, fandagi mulohazali yondashuv va ijtimoiy faollik darajalarini aniqlashga qaratilgan. Bu dasturlar ta'lim natijalarini faqat akademik bilimlar asosida emas, balki real hayotga tatbiq etish qobiliyati orqali baholashni maqsad qiladi. Shu bois, ular nafaqat ta'lim tizimining samaradorligini aniqlash, balki o'quv mazmuni, pedagogik yondashuv va metodik vositalarni qayta ko'rib chiqish uchun ilmiy asos yaratadi. Xususan, adabiyot fanini transformatsiya qilishda ham ushbu dasturlar muhim mezon va manba sifatida xizmat qilmoqda.

PISA, PIRLS, TIMSS va EQAR kabi xalqaro baholash dasturlari ta'lim sifatini aniqlash, davlatlar o'rtasida solishtirma tahlil qilish va ta'lim mazmunini global mezonlarga moslashtirishda muhim o'rin tutadi. Bu dasturlar orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari faqat an'anaviy akademik darajada emas, balki hayotiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishdagi qobiliyati, axborotni tanlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, ijtimoiy munosabatlarda muloqot qila olish salohiyati orqali

baholanadi. Ushbu yondashuv ta'lim tizimini funksional va kompetensiyaviy asosda yangilashga yo'naltirilgan.

PISA (Programme for International Student Assessment) — OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan o'tkaziladigan test bo'lib, 15 yoshli o'quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va eng muhimi — o'qish savodxonligi bo'yicha hayotiy bilimlarini aniqlashga qaratilgan. Unda asosiy e'tibor matnni tushunish, tahlil qilish, shaxsiy munosabat bildirish va umumlashtirish qobiliyatiga qaratilgan. Adabiyot fani bilan bevosita bog'liq bo'lgan PISAning "Reading Literacy" bo'limi nafaqat o'qish texnikasi, balki mulohazali o'qish va interpretatsiya qobiliyatini baholaydi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro ta'lim dasturlarida 4-sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligi va badiiy hamda axborot matnlari ustida ishlash qobiliyatini baholaydi. Unda o'quvchining ma'no anglash, matn ostidagi g'oyani tushunish, dalillarga asoslangan fikr bildirish va shaxsiy munosabat shakllantirish salohiyati tekshiriladi. PIRLS natijalari ta'limning boshlang'ich bosqichida adabiyot ta'limi samaradorligini baholashga xizmat qiladi.

TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) matematika va tabiiy fanlar sohasidagi ta'limni baholashga qaratilgan bo'lsa-da, undagi testlarni tahlil qilish jarayonida o'quvchilarning matn bilan ishlash, axborotni tahlil qilish va tanlash ko'nikmalariga ham

e'tibor qaratiladi. Shu bois, adabiyot fanini o'qitishda, ayniqsa, fanlararo matn tahlili jarayonlarida TIMSS talablariga mos savodxonlikni rivojlantirish kerak bo'ladi.

EQAR (European Quality Assurance Register) bu ta'lim sifatini ta'minlash agentliklari uchun yevropalik mustaqil tashkilotlar reyestri bo'lib, u ta'lim tashkilotlarining sifatni baholash va ta'minlash standartlariga mosligini aniqlaydi. Garchi EQAR to'g'ridan-to'g'ri maktab darajasidagi baholashni qamrab olmasa—da, u ta'limdagi sifat menejmenti, faoliyat shaffofligi va natijaviy yondashuvni kuchaytirish orqali adabiyot ta'limida ham strategik qayta ko'rib chiqishlarga zamin yaratadi.

Xalqaro baholash dasturlari haqiqatan ham faqat baholash mexanizmi emas, balki ta'lim tizimini transformatsiya qilishga olib keluvchi strategik dasturlardir. Ular ta'lim natijalarini tanqidiy qayta ko'rib chiqish, milliy o'quv dasturlarini qayta ishlash, kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy etish va o'quvchida shaxs sifatida fikr yuritish qobiliyatini tarbiyalashni talab qiladi. Bu haqda Britaniyalik pedagog Rut Ditrix shunday yozadi: "Xalqaro baholashlar faqatgina test emas; ular ta'lim islohotining vositalaridir, ular bilimga ega bo'lish bilan uni amalga qo'llash o'rtasidagi farqni ochib beradi va o'zgarib borayotgan dunyoda adabiyotni qanday va nega o'qitishimizni qaytadan ko'rib chiqishga undaydi."¹

Xalqaro baholash dasturlarida, ayniqsa PISA va PIRLS kabi keng qamrovli baholash tizimlarida o'quvchi savodxonligini baholash faqat ma'lumotni o'qish va yodlash bilan emas, balki axborotni tushunish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va qayta qo'llash qobiliyati bilan belgilanadi. Bu mezonlar ta'lim mazmunini kompetensiyaviy asosda qayta shakllantirish, o'quvchida mulohazali o'qish, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy anglash qobiliyatini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega.

Quyida ushbu mezonlarni ko'rib chiqamiz.

1. Axborotni anglash va mazmunni tushunish.

Bu mezon o'quvchining matnni yoki axborotni sintetik darajada tushunishi, matndagi asosiy g'oyani, muallifning maqsadini va umumiy ma'noni anglab yetishi bilan bog'liq. Bu jarayonda shogirdan faktlar bilan g'oyalarni, umumiy va xususiy ma'lumotlarni farqlash, matnning tuzilishini tushunish talab qilinadi. PISAda bu ko'nikma "retrieving and understanding information" (axborotni olish va anglash) deb nomlanadi.

2. Matnni tahlil qilish va baholash. Bu mezon o'quvchining matndagi dalillar, muallifning nutq uslubi, so'z tanlovi, tasvirlar va obrazlar orqali berilgan g'oyalarga baho berish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Unda o'quvchi matnning mantiqiy tuzilishi, dalil—isbotlar tizimi va ularning ishonchligini tahlil qila olishi lozim. Bu tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, PISA buni "reflecting and evaluating" (mulohaza yuritish va baholash) sifatida baholaydi.

3. Axborotni qayta qo'llash va shaxsiy ma'no yaratish. Bu mezon o'quvchining o'qilgan matndan yangi holatlar uchun xulosa chiqarish, shaxsiy munosabat bildirish va yangi kontekstda ma'lumotni qayta tatbiq qilish qobiliyatiga taalluqli. Unda o'quvchi real hayot bilan bog'liq tanlovlarni anglaydi, muammolarni hal etishda asardan, matndan, axborotdan foydalanadi. PIRLSda bu "interpretation and integration" (talqin va uyg'unlashtirish) deb belgilanadi.

4. Multimodal axborot bilan ishlash qobiliyati. Bugungi axborotlashgan jamiyatda o'quvchi faqatgina an'anaviy matnni emas, balki infografika, diagramma, rasm, skrinshot, slayd va audiomatn kabi multimodal axborot manbalarini ham tushunishi kerak. Shu bois, PISA 2018 va 2022 sikllarida vizual elementlar, raqamli formatdagi hujjatlar bilan ishlash, gipermatnli muhitda yo'l topish kabi ko'nikmalar alohida e'tiborda turdi. Bu ta'limning raqamli savodxonlik bilan uyg'unlashuvini anglatadi.

5. Matn turlari bilan ishlash: badiiy va axborot matnlari. Xalqaro dasturlar ikki asosiy matn turi bilan ishlashni talab qiladi:

Badiiy (literary) matnlar: hikoya, esse, she'r, dramatik parchalar. Bu turda hissiyot, obraz va qiyosiy tahlil talab etiladi.

Axborot (informational) matnlar: maqola, ma'lumotnoma, xat, tadqiqot parchasi. Bu turda dalillarni tushunish, manbalarni solishtirish, xulosa chiqarish talab etiladi.

6. Shaxsiy munosabat bildirish va ijtimoiy anglash. Bu mezon o'quvchining o'qilgan matnga shaxsan munosabat bildirishi, u orqali insoniy qadriyatlar, axloq, jamiyat haqida fikr yuritishi bilan bog'liq. Adabiyot ta'limida bu alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchi o'z tajribasi, hissiy holati va hayotiy qarashlari asosida matn bilan muloqot qiladi.

Umuman, xalqaro baholash mezonlari adabiyot fanining intellektual, axloqiy, ijtimoiy va estetik faoliyat bilan bog'liq o'quv maqsadlarini talab etadi. Shuning uchun adabiyot ta'limida ham ana shu mezonlarga asoslangan kompetensiyalar: mulohazali o'qish, tanqidiy tahlil, shaxsiy ma'no yaratish va multimodal fikrlash maqsad sifatida shakllantirilishi zarur. Bunday yondashuv, o'z navbatida, ta'lim mazmunini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

PISA dasturida o'qish savodxonligi tushunchasi an'anaviy o'qish qobiliyatidan farqli ravishda o'quvchining matnni anglash, tahlil qilish, sharhlash, shaxsiy munosabat bildirish va hayotiy masalalarni hal etishda undan foydalanish salohiyatini qamrab oladi. Bu tushuncha bilimlarni yodlash emas, balki ma'noli o'qish, tanqidiy idrok va mulohazali fikr bildirish qobiliyatiga asoslanadi. Aynan shu jihatidan u adabiyot fanining mohiyati va vazifalari bilan chuqur uyg'unlik kasb etadi. Zero, adabiyot ta'limi

¹ Dietrich R. Global Literacies and the Role of Assessment // International Journal of Educational Development. – 2017. – Vol. 55. – P. 89–98.

o'quvchida badiiy matn orqali dunyoqarash, hissiy anglash, fikriy mulohazakorlik va shaxsiy ma'no yaratish salohiyatini rivojlantiradi. Shu bois PISAning "o'qish savodxonligi"ga doir yondashuvi adabiyot fanini baholashda yangi metodologik mezonlar va transformatsiya vazifalarini belgilab bermoqda.

PISA dasturida "o'qish savodxonligi" faqat texnik o'qish qobiliyati yoki matnni aniq o'qib berish bilan emas, balki mulohazali o'qish, tahlil qilish, sharhlash va shaxsiy fikr bildirish qobiliyati bilan o'lchanadi. Bu savodxonlik tushunchasi o'quvchida axborotni faol qabul qilish, uni qayta ishlash, undan yangi ma'no yaratish va uni hayotiy sharoitda qo'llash salohiyatini talab qiladi. Ayni shu jihat PISAdagi baholash tizimini adabiyot fanining asl vazifalari bilan chuqur bog'laydi.

PISA baholash dasturida qo'llaniladigan matnlar va adabiy matnlar o'rtasida shakl va maqsad jihatidan farqlar mavjud bo'lsa-da, ularning o'zaro uyg'unligi va

metodologik bog'liqligi ta'lim mazmunini transformatsiya qilish nuqtayi nazaridan o'ta muhim hisoblanadi. PISAdagi matnlar, asosan, real hayotda uchraydigan funksional, informativ va qisman adabiy xususiyatga ega bo'lgan matnlar bo'lib, ular o'quvchining matnni tushunish, axborotni qayta ishlash, mulohazali fikr bildirish va qaror qabul qilish qobiliyatini aniqlashga xizmat qiladi. Bu matnlar formati, vazifasi va savollar tizimi nuqtayi nazaridan adabiy matnlar bilan yaqin aloqada bo'ladi.

Umuman, PISA matnlari va adabiy matnlar o'rtasidagi bog'liqlik shundan iboratki, ikkalasi ham o'quvchining fikr yuritishi, ma'no yaratishi, shaxsiy pozitsiya shakllantirishiga xizmat qiladi. Ushbu umumiy maqsad ularni pedagogik va metodik jihatdan integratsiyalash imkonini yaratadi. Bu esa, adabiyot fanini PISA mezonlari bilan uyg'un holda transformatsiya qilish uchun mustahkam asos hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dietrich R. Global Literacies and the Role of Assessment // International Journal of Educational Development. – 2017. – Vol. 55. – P. 89–98.
2. Рахимов З.Т. Педагогик компетентлик таълим жараёни ривожланишининг муҳим омили сифатида. // "Замонавий таълим" илмий-амалий оммабоп журнали, 2019 йил № 7–сон. – 3–8–б.
3. И.С.Якиманская. Основы личностно-ориентированного образования. – М.: «Бином. Лаборатория знаний», 2011;
4. Индиаминов Н., Бабажанов Б. Таълим самарадорлигини оширида шахсга йўналтирилган таълим // Замонавий таълим. 2014. №8. 18–22 бетлар;
5. A.B. Radjiyev, A.A. Ismailov, J.R. Narziyev, H.P. Tog'ayeva, "O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dastur", Qo'llanma, 2019–yil.
6. Д.Векслер. Тест Векслера. Описание методики//psiholog.org. <http://psihologn.org/index.php/psihologam-main3/373-test-vekslera-normativnye-tablitsy-1>
7. Адабиёт ўқитиш методикаси. /А.Зуннунов, Н.Ҳотамов, Ж.Эсонов, А.Иброҳимов – Тошкент: "Ўқитувчи", 1992.– 37–бет.
8. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. –Т., 2018 й.

Nilufar TURSUNOVA.

Turli yosh guruhlariga mansub topishmoqlarning
sotsiologik xususiyatlari.....254

Mohira HAYITOVA.

Qishki va murakkab sport terminlarining
leksik-semantik tahlili256

Ilhom NORMAXMATOV.

Ta'lim muassasalarida
sport o'yinlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga
erishishning samarali usullari258

Qarshiboy SATTAROV.

Atletika mashg'ulotlarida pedagogikaning roli va
o'quvchilarni motivatsiya qilish usullari260

Muzaffar MURATOV.

Voleybol o'yini orqali o'quvchilarda
jismoniy faollik va ijtimoiy kompetensiyalarni
rivojlantirishning pedagogik asoslari.....262

Shuhrat AXMEDJANOV.

Tennis mashg'ulotlarida pedagogikaning
zamonaviy metodlari va
o'quvchilarning faolligi264

Iroda JUMANOVA.

Jismoniy tarbiya va sportda tennis o'yinlari
yordamida motivatsiyani oshirish metodlari.....266

Muhammad ZIYATOV.

Tibbiy axborot savodxonligi: o'quvchilarni
sog'liq haqida ongli qaror qabul qilishga
o'rgatishning pedagogik asoslari268

Muratbek YUSUPOV,**Farangisbonu UMAROVA.**

Hozirgi rus tili kelishliklari tizimining
shakllanishi tarixidan270

Nargiza XAMIDOVA.

Nutqdagi xushmuomalalik vositalari: fransuz va
o'zbek tillari doirasida qiyosiy yondashuv.....272

Shaxobiddin ABDULLAYEV.

Raqamli kommunikatsiya vositalarining
zamonaviy o'zbek va ingliz tillaridagi
leksik o'zgarishlarga ta'siri.....275

Nodira RASULOVA.

Koreys va o'zbek tillarida frazeologik sinonimiya,
omonimiya, antonimiya.....277

Emina ACHILOVA.

Adabiyot ta'limini transformatsiya qilishda
xalqaro baholash dasturlarining o'rni.....280

Dilbar HUSAINOVA.

Davlat tilini o'qitishning samarali usullari283

Dildora ABDISAMATOVA.

Ona tili metodikasini o'qitishda dialogik
muloqotning o'rni285

Shaxnoza MUXTAROVA.

Ona tilini matematika fani bilan integratsiya
asosida o'qitish metodikasi.....288

Muxlisaxon ABDUJALILOVA.

Ta'lim tarbiya jarayonida millatning milliy
urf-odat, an'ana va milliy qadriyatlarining
tutgan o'rni.....291

Shakhnoza NOROVA.

Dunyoni milliy-madaniy anglashning tilda
voqelanishida gapdagi mustaqil
elementlarning roli294

Zarina ISLAMOVA,**Gulchinoy SHUKUROVA.**

Amerikada eron diasporasining
paydo bo'lishi.....296

Shukurjon ZARIPOVA.

"His qilinmagan buyuklik to'voni"
abduqayum yo'ldoshning
"Puankare" hikoyasi.....299

Amina MUSAYEVA.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning kommunikativ
kompetentligini o'stirishda zamonaviy
yondashuvlarning ahamiyati302

Firuz Abdurahmonova.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog va
psixolog hamkorligi304

Mavluda SATIYEVA.

Nasiruddin tusiy ilmiy merosining fors
adabiyotshunosligidagi o'rni306

Dildora ABDULLAYEVA.

Alisher navoiy ruboiylarida donishmandlik
va hayot falsafasi hamda uning
adabiyot darslarida o'qitilishi.....310

Huriniso XAYRULLAYEVA.

Sharq islom adabiyotida payg'ambarlar
qissalariga asoslangan "qisasul anbiyo"larning
badiiy xususiyatlari313

Sadoqat ERKINJONOVA.

O'zbek adabiyotida nashridin
muhammadning o'rni.....316

Madinabonu RAHMATOVA.

Ma'naviy-axloqiy muammolarni yoritishda
mahmud toir mahorati.....318

Saidaxon SAYDIGANIYEVA.

Mo Yanning "musallas mamlakati" asaridagi
dialektizmlar va ularning tahlili.....321

Shahnoza IZMURODOVA.

Sharq adabiyotida muso obrazi talqinlari324

Dilnoza ESANOVA.

Sharq mumtoz poetikasida muammo janri326

Maftuna AHMADJONOVA.

"Devonu lug'otit-turk" asaridagi
o'xshashlik asosida ma'no ko'chgan
polisemantik leksemalar tahlili.....328

Ziyodaxon USMANOVA.

Xurshid Davron ijodida tarixiy leksik qatlam331

Dildora OXBUTAYEVA.

Ikrom Otamurod she'riyatida lirik "men" va
poetik tasvir334

Rayhona RAXMATOVA.

Halima ahmedova hikoyalarida
ayol ruhiyati talqini337